Sapayev G‘ulomjon Baxtiyarovich (Urganch davlat Pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD),
Shakirova Lola Abduraxim qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti magistranti)

MUNIS XORAZMIY GUMANISTIK QARASHLARIDA AXLOQIY KAMOLOT TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Munis Xorazmiyning gumonistik qarashlari, uning ijodidagi insonparvarlik va axloqiy kamolot tushunchalari tahlil qilingan. Muallif mutafakkirning zamonaviy dunyoqarashiga oid fikrlari va axloqiy qadriyatlarining dolzarbligini ta’kidlab, uning o‘gitlari jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini yoritgan.*

Kalit so‘zlar*: Munis Xorazmiy, gumonistik qarashlar, axloqiy kamolot, insonparvarlik, axloqiy qadriyatlar.*

Сапаев Гуломжон Бахтиярович (доцент Ургенчского государственного педагогического института, д.ф.н. (PhD),
Шакирова Лола Абдурахим қизи (магистрант Ургенчского государственного педагогического института)

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МОРАЛЬНОГО СОВЕРШЕНСТВА В ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ МУНИСА ХОРЕЗМИ

Аннотация*. В данной статье анализируются гуманистические взгляды Муниса Хорезмий, а также его представления о моральном совершенстве и гуманизме. Автор подчеркивает актуальность его идей для современного общества и освещает вклад мыслителя в духовное развитие человечества.*

Ключевые слова: *Мунис Хорезмий, гуманистические взгляды, нравственное совершенство,* гуманизм, моральные ценности.

Sapayev G‘ulomjon Baxtiyarovich (Associate professor of Urgench State Pedagogical Institute, f.f.f.d. (PhD),
Shakirova Lola Abduraxim qizi (master’s student of Urgench State Pedagogical Institute)

INTERPRETATION OF MORAL PERFECTION IN THE HUMANISTIC VIEWS OF MUNIS KHWAREZMIY

Annotation. *This article analyzes the humanistic views of Munis Khorezmi and his concepts of moral perfection and humanitarianism. The author emphasizes the relevance of his ideas for modern society and highlights the thinker’s contribution to the spiritual development of humanity.*

Keywords: *Munis Khorezmi, humanistic views, moral perfection, humanitarianism, moral values.*

Kirish. Insonparvarlik g‘oyalari Markaziy Osiyo mutafakkirlari dunyoqarashining ham diqqat markazida bo‘lib, XVIII–XIX asrlarga kelib, bu o‘lkaning deyarli barcha ma’rifatparvarlari, shu jumladan, Xorazm shoirlari ijodining asosiy mavzusiga aylandi. Xususan, o‘sha davrda yashab ijod etgan Munis Xorazmiy ma’naviy merosining tub mohiyatini gu-manistik, xalqparvarlik va ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar tashkil etadi. Uning asarlarida o‘zi yashagan zamonga nisbatan norozilik, jaholatga qarshi fikrlarni ilgari surgan bo‘lsada, ko‘pgina g‘azallarida inson hayoti va istiqbolida muhim o‘rin tutuvchi ijtimoiy-axloqiy mavzular mutafakkir ma’naviy merosida alohida o‘rin tutadi.

Mutafakkirning gumanistik qarashlarida do‘stlik va o‘zaro ishonch, mehr-oqibat va muruvvat, insoniyatga bo‘lgan sevgi-muhabbat, saxiylik, bag‘rikenglik va hamjihatlik kabi axloqiy tushunchalar asosiy o‘rin egallaydi. Axloqiy kamolotga erishish uchun xalqparvarlik, xushmuomalalik, adolatparvarlik, mardlik kabi oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlab, ularning aksi bo‘lgan illatlarni qoralagan, ulardan uzoqda bo‘lishga chaqirgan:

Tutma badgo‘ birla suhbatkim, yomon so‘z zahridin,
Neshi zanbo‘ri kibi har dam berur ozorlar.
Kim yaqinroq borsa itga urmog‘idin injitur,
Balki tishlab jismin afgoru to‘nin murdorlar. [1;320-b.]

Munisning gumanistik qarashlari u yashagan davrdagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy hayot, kishilarning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy muhitning ta’sirida shakllangan. Shu bilan birga, xon saroyidagi ish faoliyatida saroy hayoti bilan yaqindan tanish bo‘lganligining ham roli bo‘lgan. Zero, «Munisning saroy muhitiga yaqinlashuvi, unga xon va saroy ahllarining yaramas kirdikorlarini yana ham ravshan bilib olishga to‘la imkon berdi» [2;54-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shoir hayoti va mehnat faoliyati davomida ko‘plab begunoh insonlarning jaholat qurboni bo‘layotganligiga, jamiyatdagi nohaqlik va hukmdorlarning adolatsizliklariga guvoh bo‘lgan. Ayniqsa, inson qadri, uning hayoti, mehnati va hunarining qiymati yo‘qolib borayotganligidan ma’nan ezilib, zamonasidan norozi bo‘lgan. Mutafakkir ko‘z o‘ngida bo‘layotgan bunday ishlarni ko‘rib, shoh va amaldorlarning yovuzliklarini qoralaydi, insonparvarlik, xalqparvarlik, tenglik, vatanparvarlik,

mehnatsevarlik, mardlik, saxiylik, halollik, poklik kabiaxloqiy kamolot tamoyillarni ulug‘laydi. Chunki mutafakkirning gumanistik fikrlaridagi asosiy maqsad inson baxt-u qboliga, tinch va farovon yashashiga qaratilgandir. Demak, V.Zohidovning «Munis o‘z ijodidagi jiddiy tarixiy cheklanishga, ayrim ziddiyatlarga qaramasdan, o‘sha davrning muazzam insonparvar va vatanparvar shoirlaridan biri» [3;133-b.], degan fikriga to‘la qo‘shilamiz.

Mutafakkir zamonasini tanqid qilish orqali, o‘zining gumanistik g‘oyalarini ilgari suradi va xalqni axloqiy kamolotga da’vat etadi. Bu bilan shoir zamonasining hukmdor va yomon kishilarining harakatlarini g‘ayriinsoniy deb baholab, ularni tarbiyalamoqchi bo‘lgan.

Shuaro desa hijo, yo‘qsa xushomad doim,
Ro‘zg‘orini falokat bila aylab barham. [1;21-b.]

Munis Xorazmiy gumanistik qarashlarida inson qadr-qimmatining pasayishi va insoniy fazilatlar rolining kamayib ketishiga zamonni ayblaydi. Jamiyatda insonning qadri va hurmati, uning axloqiy va insoniy fazilatlari bilan emas, balki mol-u davlati va mansabi bilan qadrlanayotganidan noliydi:

Zamona ahlig‘a izhori fazl qilma abas,
Alarg‘a aybi hunar borho hunar bo‘ldi. [1;151-b.]

Shoir bu masalada alohida to‘xtalib, insonlarning davlati va nasl-nasabi bilan qadrlanmasligini, bunday kishilarning o‘zlari ham mol-u nasabi bilan kibrlanmasligini ta’kidlaydi. Aslida, kishining jamiyatdagi qadr-qimmati, hurmat-e’tibori uning ajdodlari va ular qilgan ishlar bilan emas, balki o‘zining bugungi kundagi ezgu amali, kasbi va insoniy fazilatlari bilan ulug‘lanishini, shuning uchun inson, eng avvalo, yaxshi kasb egasi bo‘lishiga da’vat etadi:

G‘urur etma aslingg‘a, qil kasbi fazl,
Erur mo‘tabarroq nasabdin hasab. [4;68-b.]

Mutafakkir fikricha, mol-u davlat sabab insonlar o‘rtasidagi yaxshilik va oliyjanoblik fazilatlari yo‘qolib borayotganligidan, yaxshilik oyoq osti qilinib, yomonlik qonun darajasiga ko‘tarilganidan, yaxshilikka yaxshilik emas, balki yomonlik qaytayotganidan achinadi:

Zamon ahlig‘a qilsang yaxshilig‘, ko‘z tut yamonlig‘lar,
Shajar shoxiga tosh otmoqqa dur bermak samar bois. [4;67-b.]

Darhaqiqat, davr adolatsizligi sabab yaxshi insonlar yomonlik ko‘rishgan, jabr-u jafo chekishgan, yomonlarga esa yaxshilik qilinib, ularga marhamat qilingan. Yaxshilarga yomonlik, yomonlarga yaxshi munosabatda bo‘lganligini ko‘rgan shoir ma’nan e’zilib, «charxi kajraftordan» shikoyat qiladi [1;24-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur mavzu yoritashda Munisning tarixiy qo‘lyozma manbalari va g‘azallaridan foydalangan holda mantiqiylik, qiyosiy tahlil, sinergetik, umumlashtirish, analogiya, obyektiv yondashuv, induksiya va umuminsoniylik metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mutafakkir gumanistik qarashlarida oliyjanob insoniy fazilatlarni ulug‘lash bilan birga, ularning aksi bo‘lgan shuhratparastlik, amaldorlarga maddohlik, molparastlik kabi illatlarni qoralaydi. Uning aytishicha, salbiy illatlar insonni tubanlashtiradi, yaxshilikdan, oliyjanob insonlar va do‘stlardan uzoqlashtirib, xudbinlikka olib keladi. Zero, ahli davlatg‘aqanchalikmaddohlik qilinsada, fuqaro undan muruvvat kutmasin, «Topmas iqboldin nishon shuaro», deb ta’kidlaydi (1;12-b.).

Munis Xorazmiy jamiyatdagi johil va yovuz kishilardan, doim birovlarga ozor beruvchi, g‘am tashvish keltiruvchi yomon illatlarni o‘ziga odat qilib olgan kishilardan qattiq nafratlangan. Boylikga hirs qo‘ygan, xudbin kishilardan uzoqda bo‘lishlik haqida ogohlantiradi:

Raqib ollingda bo‘lmoqdin hazinman,
Tilarman ko‘rmasam ul bo‘lmag‘irni. [1;19-b.]

Mutafakkir gumanizmining yana bir xususiyati, tarbiyaviy ahamiyatga ega g‘oyalarining alohida o‘rin tutishidir. U odamlarning jamiyatda orttirib olgan turli zararli odatlarini qattiq qoralab, ulardan uzoqda bo‘lishlikni, ichkilikbozlik, kashandalik kabi illatlardan himoya qilishga chaqirgan. Iinsoniy fazilatlarning kamayishiga, oila mustahkamligi va yoshlar tarbiyasining buzilishiga, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik, muhabbat, oqibatning yo‘qolishiga ana shu illatlar sabab bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Xususan, shoirning «Chilim» deb nomlangan chiston-g‘azali ana shu masalalarga bag‘ishlangan. R.Orzibekov aytganidek, bu g‘azalda nashavandlikning, chilim chekishning o‘ta zarari, shariatda «harom» deb e’lon qilinganligi aytilib, odamlar, ayniqsa, yoshlar bu falokatdan uzoqda bo‘lishlari ogohlantiriladi [5;140-b.].

Munis Xorazmiy ichkilikbozlikni bu kashandalikdanda yomon ekanligini ta’kidlaydi. Ichkilik kishiga jismoniy va ruhiy salbiy ta’sir qilib, axloqiy kamolotga erishish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan deb hisob-

laydi. Shoir, may (sharob) axloqsizlik, odobsizlik, tubanlik, o‘g‘irlik, xudbinlik, fitna kabi salbiy odatlarga sababchi bo‘lishini ta’kidlab, barchani bu illatdan uzoq bo‘lishga da’vat etadi:

Sharob ichma, kuydirmagil dimog‘ abas,
Bu fitna shu’lasidin yoqmag‘il charog‘ abas. [1;237-b.]

Ichkilik, deydi shoir, kishini g‘aflatda qoldirib, kasal qiladi:

Ichib may, bo‘lma ko‘p shodobi g‘aflat,
Ul o‘tdin solma jong‘a tobi g‘aflat. [4;57-b.]

Mutafakkir may ichish, unga ruj-u qo‘yishni qoralab taqiqlar ekan, do‘st bilan dushmanni bir dasturxon atrofida o‘tirishiga sabab bo‘luvchi xarom ichimlik deb hisoblagan:

Harchand berur lazzat sarshor qadah,
Yuz nash’a qilib padidor qadah.
Bir damki ichar yor ila ag‘yor qadah,
Makruh ko‘runur menga bisyor qadah. [6;334-b.]

Darhaqiqat, ichkilik barcha zamonlarda ham qoralanadigan kishining yomon odatlardandir. Munis Xorazmiy, mayparastlik kishini shirin hayotidan ayirib, oxir-oqibat «Mayi rangin gumon aylarsen, ammo» [4;57-b.] deya, muhtojlikka giriftor qilishidan ogohlantiradi.

Munis Xorazmiyma’naviy merosida axloqiy kamolot tamoyillari bo‘lgan do‘stlik, mehr-oqibat, yaqinlar xolidan xabar olish, vafo, sadoqat kabi insoniy fazilatlarga ham katta urg‘u beriladi. Mutafakkir taxallusining o‘zi ham uning do‘stlikni va birodarlikni qanchalik qadrlaganini ko‘rsatadi:

O‘lturib yonimda yuz turluq novozishlar qilib,
Do‘stlari ichra meni bu nav’ mumtoz etti do‘st. [4;62-b.]

Shoirning do‘stlikka oid qarashlaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, u do‘stni og‘ir damlarda sahrodagi najotkor otga, dushmanlar orasida esa kishining himoyachisi va suyanchig‘idir deb hisoblagan.

Munis Xorazmiy insonlarni o‘zaro do‘st va inoq bo‘lib yashashlikka chaqirar ekan, bir-birlari bilan bordi-keldi qilishlikni, turli xafagarchiliklarni unutib, mehr-oqibatni mustahkamlish uchun bir-birlari holidan tez-tez xabar olib turishlikgada’vat qiladi. Chunki bular insonlar o‘rtasidagi sadoqat va ishonchni mustahkamlaydi, jamiyatning hamjihatligini ta’minlaydi, deydi:

Do‘stlar mehmonlig‘ etsa boringiz,
Sina jon uyiga undab boringiz. [1;329-b.]

Munis Xorazmiy ijodida ko‘tarilgan insonparvarlik fazilatlarning yana biri vafodorlik va sadoqatdir. U vafoni komil insonlarga xos deb bilgan va bu fikrlarini she’riyatida oshiqlar o‘rtasidagi mehr-muhabbat, vafo, sadoqat tushunchalari orqali majoziy ifodalagan:

Vafo qilmoq bila ko‘nglum qutordiig qaydi mehnatdin.
Bihamdillah, vafo rasmi sanga, jono, musallamdur. [4;94-b.]

Bevafolikni esa axloqiy tubanlik deb, kishining g‘am-alam chekishiga odamlardagi vafosizlik va sadoqatsizlikni sabab qilib ko‘rsatadi:

Istamak rasmi vafo olamdadur savdoyi xom,
Ohkim, ul jinsdin holi erur bu chorsu. [4;165-b.]

Munis Xorazmiy insonlar o‘rtasidagi xoinlik, bevafolik sababini ijtimoiy muhit va zamonning beshafqatligida ko‘radi, bunday munosabatlar bo‘lishidan qattiq ranjiydi. Mutafakkir fikricha yordan bo‘lmagan mehr va hamdardlikni xalqdan, zamona ahlidan kutmasa ham bo‘ladi, insonlarning o‘zaro diydoriga to‘ya olmasligiga mehrsiz dunyoni aybdor deb bilgan:

Mungloshqali bir kimsa topilmas g‘aming ichra,
Xamdard tamannosidin emdi toriqibmen. [4;161-b.]

Shoir insondagi xiyonat va ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni qoralar ekan, kishilar ba’zan har xil qiyofaga kirib, fe’li o‘zgarib turishini, bunday buqalamun tabiatli kishilardan ogoh bo‘lish kerakligidan ogohlantirgan:

Mohi ro‘ying to tulu’ etti malohat burjidin,
Gah qizartur, goh sarg‘artur quyosh rangin uyot. [4;58-b.]

Insonparvarlikning eng muhim jihatlari bo‘lmish to‘g‘rilik, halollik, iymon, ezgu niyat, qalb pokligi kabi vijdoniy tuyg‘ular, odamni ma’naviy barkamollikka yetaklashda muhim ahamiyatga ega. Biz tadqiq qilayotgan mutafakkir ijodida ham ushbu insoniy xislatlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ayniqsa, to‘g‘rilik va halollik fazilatlariga katta e’tibor berganligini ishqiy g‘azallarida yaqqol ko‘rish mumkin. Munis Xorazmiy sevgi, ishq-muhabbatni ulug‘lash orqali insondagi to‘g‘rilikni tarannum etadi, uni insonning eng yuk-

sak ma'naviy xislati deb baho berib, ezgu maqsadlarga erishishga yordam berishini aytadi. Agar oshiq to'g'ri, halol, samimiy va niyati toza bo'lsa, ma'shuqaning o'zi oshiq oldiga keladi deydi [4;96-b.].

Shoirning bunday she'rlarida oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali eng yuksak axloqiy qadriyatlarni ko'rsatishga harakat qilingan. Masalan, go'zal yor timsoli orqali vafo, sadoqat va ishonch tuyg'ulari shunchalik ulug'lanadiki, bunday axloqiy qadriyatlarni Ka'baga tenglashtiradi:

Qiblai ahli vafo keldi yo'ling, ey mahbub,
Mundin erdiki, manga ka'ba durur diydoring. [4;9-b.]

Munis Xorazmiyning asarlarida insonni axloqiy kamolotga olib boruvchi muhabbat mavzusi alohida o'ringa ega bo'lib, insonlar o'rtasida o'zaro muhabbatni eng yuksak axloqiy qadriyat sifatida ulug'laydi. U muhabbatni «dard mulki» deb atagan bo'lsa-da, shu sevgi iztirobi, sevmoq, sevilmoq, aslida, mehrli insonlargagina xos ijtimoiy hodisa deb hisoblaydi:

Dard chekmak, ashk to'kmak ishq eliga xosdur,
Har ko'ngulga dardu har ko'zga emas nam oshno. [4;23-b.]

Shoir o'z asarlarida yor va oshiqning xulq-atvori haqida to'xtalib, chin oshiq faol, o'z baxti uchun kurashchan bo'lishi kerak, deydi. Beqaror ishqni tanqid qilib, uni havasga o'xshatadi. Insonni butun borliqning gultoji va Allohning tajallisi deb ta'riflar ekan, u sevish va sevilishga munosibdir,deb biladi. Buni uning oshiqona g'azallarida insoniy ishqni tarannum etganligini ko'rish mumkin.

Shoirning «Xo'blar ishqidin, ey nosih, mani man' aylama» deb boshlanuvchi g'azalidagi «Xo'blar» so'zi jisman go'zal, ruhan pok, ma'nan barkamol, Haq vasliga yetgan insonlardir. Demak, shoir nazarida, ana shunday insonlarnigina muhabbat ma'naviy komillik sari yetaklaydi. Demak, Munisning insonparvarlik g'oyalari negizini muhabbat tushunchasi tashkil qiladi va u insonni axloqiy kamolotga yetaklaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Umuman, Munis Xorazmiyning insonparvarlik va axloqiy kamolot haqidagi qarashlari tarbiyaviy va ijtimoiy harakter kasb etib, o'z davrining ma'naviy qiyofasi va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib bergan. Ilg'or gumanistik g'oyalari bilan insoniyatni ezgulikka chorlab, tarbiyalashga harakat qilgan, insonparvarlikning nima va qanday mezonlar bilan o'lchanishini ko'rsata olgan mutafakkirdir.

Xulosa va takliflar. Munis Xorazmiyning gumanistik fikrlari tahlilidan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinrki, u insoniy fazilat va xislatlarni, pok va ezgu tuyg'ularni yuksak qadrlab, bular insonning aziz va buyukligini ko'rsatuvchi xususiyatlardan biridir, deydi. Inson barcha mavjudotlarninig eng azizi va mukammali ekan, u Tangrining yerdagi aksi va barcha yaxshi fazilatlarga ega mavjudot deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u shu maqomga munosib bo'lmog'i, nomni oqlamog'i kerakligini ta'kidlaydi.

Insondagi axloqiy tubanlik bo'lgan yovuzlik, vafosizlik, nafs va boshqa shu kabi yomon illatlarga faqat uning o'zi sababchi emas, balki u yashayotgan muhit va zamonning ham ta'siri bo'ladi deb hisoblaydi.

Munis Xorazmiyning bunday g'oyalarini yanada kengroq o'rganish, targ'ib qilish bugunning muhim vazifasi bo'lib, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarda, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynashi, shubhasiz. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, «Toki, bolalarimiz boshini baland ko'tarib, men mana shunday ulug' insonlarning avlodiman, deb yashaydigan bo'lsin, ularga munosib bo'lib voyaga yetsin» [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Munis Xorazmiy. Saylanma. Nashrga tayyorlovchi Y.Yusupov. T., Adabiyot va san'at nashr., 1980.
(2). Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar. T., Adabiyot va san'at nashr., 1983.
(3). Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. Toshkent, O'zadabiy nashr, 1961.
(4). Munis. Munis ul-ushshoq. O'zFA SHI, Qo'lyozmalar fondi, 940-in.raqam.
(5). Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII–XIX asrlar I yarmi). T., 2006.
(6). Munis Shermuhammad. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi Y.Yusupov. T., davlat badiiy adabiyot nashr., 1957.
(7). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 9-noyabrdagi xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2017-yil 10-noyabr.